

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.B.20.04 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI

BEKBERGENOVA ZAXIRA OMIRBEKOVNA

**JANUBIY OROLBO'YI CHO'LLASHUVINING QORAQALPOG'ISTON
TUPROQ USTI VA OSTI HASHAROTLARI FAUNASIGA TA'SIRI VA
ZAMONAVIY HOLATI**

03.00.06 – Zoologiya

**BIOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Nukus – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наука (DSc)

Contents of dissertation abstract doctor of science (DSc)

Bekbergenova Zaxira Omirbekovna

Janubiy Orolbo‘yi cho‘llashuvining Qoraqalpog‘iston tuproq usti va osti hasharotlari faunasiga ta’siri va zamonaviy holati..... 3

Бекбергенова Захира Омирбековна

Влияние опустынивания Южного Приаралья на фауну почвенных и припочвенных насекомых Каракалпакстана и ее современное состояние 31

Bekbergenova Zakhira Omirbekovna

The influence of the desertification of the Southern Aral Bay on the fauna of above-ground and below-ground insects of Karakalpakstan and its current state..... 60

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 64

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.B.20.04 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI

BEKBERGENOVA ZAXIRA OMIRBEKOVNA

**JANUBIY OROLBO'YI CHO'LLASHUVINING QORAQALPOG'ISTON
TUPROQ USTI VA OSTI HASHAROTLARI FAUNASIGA TA'SIRI VA
ZAMONAVIY HOLATI**

03.00.06 – Zoologiya

**BIOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Nukus – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.DSc/B227 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Xorazm Ma'mun akademiyasida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.karsu.uz) hamda «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Abdullayev Ikram Iskandarovich
Biologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponetlar:

Bekchanov Xudaybergan O'rinovich
Biologiya fanlari doktori, professor

Xusanov Alijon Karimovich
Biologiya fanlari doktori, professor

Shermatov Malikjon Raxmatjonovich
Biologiya fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston Milliy universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.B.20.04 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2025-yil «24» may kuni soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Universitet majlislar zali. Tel: (+99861) 223-60-47, faks (+99861) 223-60-78, E-mail: karsu_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№296-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy, Tel: (+99861) 223-59-49.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «07» may kuni tarqatildi.

(2025-yil «07» maydagi № 1-raqamli reestr bayonnomasi).



M.A.Jumanov
Ilmiy darajalar beruvchi bir
martalik Ilmiy kengash raisi, b.f.d.,
professor

M.K.Begjanov
Ilmiy darajalar beruvchi bir
martalik Ilmiy kengash ilmiy
kotibi, b.f.f.d., dotsent

Y.I.Ametov
Ilmiy darajalar beruvchi bir
martalik Ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, b.f.d.,
professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyoda global iqlim o'zgarishi, inson omilining atrof-muhitga salbiy ta'siri, cho'llanishning ortishi va tuproq degradatsiyasi hayvonlar, jumladan, hasharot turlari xilma-xilligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu holat, ayniqsa so'ngi yillarda tabiiy va sun'iy ekotizimlardagi yovvoyi va madaniy o'simliklar holatiga jiddiy zarar yetkazuvchi zararkunanda hasharotlar sonining va miqdorining keskin oshishiga olib kelmoqda. Shu bois, tabiiy va kuchli o'zlashtirilgan hududlardagi hasharotlarni inventarizatsiyalash, faunasi shakllanishini aniqlash, zararli turlarining o'zgargan sun'iy ekotizimlarga moslashuvchanligini baholash dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahonda hasharotlar yashash muhitlarining antropogen o'zgarishi bilan bog'liq holda kechayotganligi, ekologik tizimlar degradatsiyasi va uning oqibatlari natijasida hasharotlar xilma-xilligida sodir bo'layotgan o'zgarishlarni o'rganishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu borada, jumladan, turli ekotizimlar strukturasi va entomofauna tarkibidagi o'zgarishlar kompleks o'rganildi, har yili dunyoda yangi aniqlanayotgan turlarning biogeotsenozdagi o'rni tavsiflandi, fitofag hasharotlar populyatsiyasining mavsumiy hamda ko'p yillik o'zgarishlari baholandi va ularga qarshi kurash choralari takomillashtirildi. So'ngi yillarda sun'iy o'zlashtirilgan hududlarda antropogen omillar ta'sirida entomofauna vakillarining kamayib ketayotganligi bilan birgalikda, ko'pgina zararli turlarning areallari kengayotganligini alohida ta'kidlash lozim. Shunga ko'ra, arid hududlardagi hasharotlar faunasini aniqlash, tarqalishi va ekologik xususiyatlarini baholash, ularning trofik aloqalarini izohlash va zararli turlarini nazorat qilish usullarini takomillashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda keyingi yillarda Orolbo'yi hududida dengizning qurigan tubida hayotni qayta tiklash, yashil makon barpo etish, bioxilmaxillikni bosqichma-bosqich qayta tiklash, hasharotlarning tur tarkibini aniqlash, zararkunanda fitofaglarni biologik va ekologik xususiyatlarini o'rganishga alohida e'tibor qaratildi. Bu borada, jumladan, qurg'ochilik iqlim sharoitida respublikamizning Orolbo'yi hududi entomofaunasi aniqlandi, kam sonli turlari muhofazaga olindi, zararli turlariga qarshi ekologik bezarar kurash choralari takomillashtirildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida O'rmon xo'jaligi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida"¹, "...Orol dengizining suvi qurigan tubida va Orolbo'yi hududlarida "yashil qoplamalar" barpo etish, cho'l o'simliklari urug'larini ekish va uzluksiz yetkazib berish, kasallik va zararkunandalarga qarshi kurashish, Orol fojiasining salbiy oqibatlarini kamaytirish, o'simlik va hayvonot dunyosini samarali muhofaza qilish hamda o'rmon xo'jaligini rivojlantirish muammolarini hal etishga qaratilgan" vazifalari belgilangan.

Mazkur vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, Janubiy Orolbo'yi hududlaridagi tuproq usti va osti hasharotlarining zamonaviy holatini aniqlash, turli

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida o'rmon xo'jaligi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2020-yil 6-oktabrdagi PQ-4850-son Qarori.

biotoplardagi tarqalishini va ekologik xususiyatlarini ochib berish, ekologik-trofik aloqalari va bioekologik xususiyatlarini o'rganish, aniqlangan turlarining iqtisodiy va ekologik ahamiyatini hisobga olgan holda qiyosiy tahlil qilish bugungi kunning dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 31-avgustdagi "Qishloq xo'jaligi o'simliklarini zararkunandalar, kasalliklar va begona o'tlardan himoya qilish to'g'risida"gi 116-II-sonli Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2030-yillargacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasi atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019-yil 30-oktyabrdagi PF-5863-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar PF60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining respublika hududlarida o'rmonzorlar, shuningdek, "Orol dengizi va Orolbo'yi hududlarida "yashil qoplamalar" barpo etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2020-yil 25-noyabrdagi №745-son Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiya rivojlanishining V. «Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi. Hasharotlarning turli ekologik guruhleri, turlar xilma-xilligi, biologiyasi, hayot tarzi, tarqalishi va taksonomiyasini o'rganishga, shuningdek, qishloq xo'jaligi zararkunandalariga qarshi kurash va oldini olish choralari ishlab chiqishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari, jumladan, American entomologist (USA), Department of Entomology (Texas), Deutsches Entomologisches Institut (Germaniya), University of Copenhagen Zoological Museum (Daniya), Institute of Entomology Biological Center CAS (Chexiya), Tokyo university of Agriculture (Japanes), Department of Entomology (China), Zoologiya instituti (Rossiya), Zoologiya instituti (Qozog'iston)da olib borilmoqda.

Turli turkumlarga mansub hasharotlarning tarqalishi, faunistik kompleksi, xilma-xilligi, sistematikasi, ekologiyasi va xo'jalik ahamiyatiga oid jahonda olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi natijalar olingan: turli ekologik guruhlarga mansub hasharotlarning bioxilmaxilligi, filogeniyasi va taksonomiyasi aniqlangan (American entomologist, USA, University of Copenhagen Zoological Museum, Daniya), ekotizimlarida hasharotlarning tarqalish xususiyatlari ochib berilgan (Department of Entomology, Texas), hasharotlarning morfologiyasi, bioekologiyasi keng ko'lamda o'rganilgan (Institute of Entomology Biological Center CAS (Chexiya), Tokyo university of Agriculture (Japanes)), hasharot turlarini gen injeneriyasi uslubida tadqiq etishning zamonaviy texnologiyalari ishlab chiqilgan (Deutsches Entomologisches Institut, Germaniya), ayrim hasharotlarning xo'jalik ahamiyati baholangan va ularni muhofaza qilish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan

(Zoologiya instituti, Rossiya), zararli turlariga qarshi kurash choralari ishlab chiqilgan (Zoologiya instituti, Qozog'iston).

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Turli ekologik guruhga mansub hasharotlar faunasi, bioekologik xususiyatlari va sistematikasi bo'yicha tadqiqotlar xorijlik olimlar M.J.Tauber va boshq. (1986), A.V.Lachininskiy va boshq. (1992), Y.Basset (1994), P.Ram va W.B.Tshernyshev (1995), T.D.Schowalter (2011), E.G.Brockerhoff va A.M.Liebhold (2017) tomonidan o'rganilgan.

MDH mamlakatlari olimlari tomonidan tuproq usti va tuproq hasharotlarining xilma-xilligi, taksonomiyasi, morfologiyasi, biologiyasi va ekologik xususiyatlari A.L.Yanshin va L.A.Goldenberg (1960), P.P.Chinayev (1964), M.V.Stolyarov (1967), Y.V.Sinadskiy (1972), Bey-Bienko (1980), Y.Bogach (1982), B.V.Iskakov (1983), V.I.Kasheyev (2002), A.S.Zamotaylov (2009), Y.A.Zaxvatkin va boshq. (2009) va M.K.Childebayevlar (2011) tadqiqotlarida qayd etilgan.

O'zbekistonda, jumladan, Janubiy Orolbo'yi entomofaunasi tur tarkibi, tarqalishi, bioekologik xususiyatlari va sistematikasiga oid ma'lumotlar V.V.Yaxontov (1950), R.A.Alimdjanov (1950), A.A.Bekuzin (1962), G.Sh.Shamuratov (1970), E.Sh.Toreniyozov (1969), G.A.Avanesova (1982), A.G.Davletshina (1984), A.R.Utepbergenov (1990), Sh.T.Xo'jayev (1995), A.Sh.Xamrayev (2000), Z.O.Bekbergenova (2000), N.G.Shamuratova (2007), T.T.Kulumbetova (2008), R.Y.Koshanova (2010), M.J.Medetov (2012) va boshqa olimlar ishlarida aks ettirilgan.

Biroq, bugungacha Orolbo'yi entomofaunasi, xususan, zararkunandalar bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqot ishlarning yogona ro'yxati shakllantirilmaganligi, mavjud bo'lsa ham eski sistematik holatdaligi, shuningdek, Orol dengizining qurigan tubida "yashil qoplamalar" barpo etilgandan so'ng Qoraqalpog'iston hasharotlarining tur tarkibi, landshaftlar bo'yicha tarqalishi haqida to'liq ma'lumotlar bera olmaydi. Shunga ko'ra, entomofaunaning tur tarkibi va taksonomik tizimini aniqlash, hayotiy shakllarini tavsiflash, oziqlanish xususiyatlarini ochib berish, hamda zararli turlarini aniqlash dolzarb vazifa hisoblanib, nazariy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zRFA Zoologiya institutining P-122 «Markaziy Osiyoda madaniy merosga jiddiy xavf soluvchi Turkiston termitiga qarshi kurash strategiyasini ishlab chiqish» (2008-2010-yy.), BMT ning Taraqqiyot Dasturi (UNDP) va Global ekologik jamg'armasi (GEF) xalqaro tashkilotining «Amudaryoning quyi qismi Qoraqalpog'istonda to'qaylarni saqlash va muhofazalanadigan hududlar tizimini mustahkamlash» (2006-2011-yy.) mavzusidagi xalqaro loyihalar va FA-EFZ-016 «Qoraqalpog'iston sharoitida termitlarning bioekologik xususiyatlari va tarqalishi hamda ularga qarshi kurashish uchun yangi mikrobiologik bioinsektitsidlarning ilmiy asoslarini ishlab chiqish» (2008-2010); F5-FA-O-13230-FA-F1-GOO4 «Janubiy Orolbo'yining beqaror gidrologik rejim va iqlim o'zgarishi sharoitida tabiatning atrof-muhit va biotoplarini o'zgartirish dinamikasini har tomonlama o'rganish» (2012-2016-yy.); Quyi Amudaryo davlat biosfera rezervatining «Quyi Amudaryo davlat biosfera rezervati entomofaunasi» (2015-2016) mavzularidagi loyihalar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Janubiy Orolbo‘yi Qoraqalpog‘iston to‘qay va cho‘l ekotizmi fitofag hasharotlarning taksonomik va ekologik xususiyatlarini aniqlash, faunistik tahlil qilish asosida ro‘yxatini qayta shakllantirish va cho‘llashuvining hasharotlarga ta‘sirini o‘rganishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Janubiy Orolbo‘yi Qoraqalpog‘iston to‘qay ekotizimi zararkunanda hasharotlar xilma-xilligini aniqlash va taksonomik strukturasini tuzish;

cho‘l ekotizimi zararkunandalari tur tarkibini aniqlash, qiyosiy tahlil qilish va ro‘yxatini shakllantirish;

fitofaglar tomonidan o‘simliklarni zararlash xususiyatlarini, trofik aloqasini belgilash va bioekologik xususiyatlarini tavsiflash;

tuproq usti va tuproq hasharotlarini ekologo-faunistik tahlil qilish;

cho‘llanishning hasharotlar faunasiga ta‘sirini o‘rganish.

Tadqiqotning obyekti Janubiy Orolbo‘yi to‘qay va cho‘l ekotizimlarining fitofag hasharotlari hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti to‘qay va cho‘l o‘simliklari zararkunanda hasharotlarning zamonaviy tur tarkibi, taksonomiyasi, bioekologik xususiyatlari va xo‘jalik ahamiyati hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada entomologik, vizual kuzatuv, fenologik, statistik hamda qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Janubiy Orolbo‘yi fitofaglarining zamonaviy holati tahlil qilinib, to‘qay zararkunandalarining 6 turkum, 51 oila, 133 avlodga mansub 185 tur, cho‘l zararkunandalarining 7 turkum, 76 oila, 415 avlodga mansub 823 turi aniqlangan;

Janubiy Orolbo‘yi faunasi ikkita mikrohududlarni (to‘qay va cho‘l) qiyosiy baholash orqali asoslangan;

Janubiy Orolbo‘yi to‘qay hudud uchun yangi 47 tur; to‘rang‘ilning (*Populus*) 4, tolning (*Salix*) 5, jiyydaning (*Elaeagnus*) 2, shirinmiyaning (*Glycyrrhiza glabra*) 9, yantoqning (*Alhagi*) 19, ching‘ilning (*Halimodendron*) 8 tur zararkunandalari aniqlangan;

Janubiy Orolbo‘yi Qoraqalpoqiston cho‘l hudud uchun yangi 665 ta fitofag turlari aniqlangan;

Janubiy Orolbo‘yi cho‘llashuvi Qoraqalpog‘iston entomofaunasida fitofag turlar sonini ortganligi asoslab berilgan;

to‘qay va cho‘l ekotizimlarda fitofag hasharotlarning trofik munosabatlari, keltiradigan zarari, zararlilik darajasi va hayotiy shakllari ochib berilgan;

cho‘llashuvning tuproq usti va osti faunasiga ta‘siri o‘rganilib, turlarning ekologik guruhlari ochib berilgan.

Cho‘l va to‘qay tuproq usti va tuproq osti entomofaunasi yashash joyi, namlik va trofik munosabatlariga ko‘ra, 11 ta ekologik guruhlarga ajratilgan;

Zararkunandalarining ma‘lumotlar bazasi kiritilgan QR kodi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Janubiy Orolbo‘yi cho‘l va toqay hududida hasharotlar faunasi to‘g‘risida yangi ma‘lumotlar olingan;

ekotizimdagi zararkunanda hasharotlarning iqtisodiy jihatdan muhim turlarining amaliy natijalari aniqlangan va tur tarkibini aniqlash jadvali tuzilgan;

to'qay va cho'l ekotizimi entomofaunasi haqidagi to'plangan biomateriallar ma'lumotlar bazasiga kiritish bo'yicha hasharotlar ro'yxati shakllantirilgan;

olingan natijalar o'rmonchilik xo'jaliklari, qishloq xo'jaligi sohasi amaliyotida manzarali va qishloq xo'jaligi o'simliklar zararkunandalari atlasini va tavsiyanomasini chop qilish, shuningdek, OTM bakalavr va magistr lari uchun ma'ruzalar va amaliy mashg'ulotlarida qo'llanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo'llanilgan an'anaviy, entomologik, morfologik, fenologik usullar va qiyosiy tahlillar hamda ilmiy yondashuvlarni qo'llash asosida olingan natijalarni nazariy va amaliy ma'lumotlarga mos kelishi, tadqiqot natijalarni mahalliy va xorijiy tadqiqot ishlar bilan taqqoslanganligi, ularni nufuzli ilmiy nashrlarda chop etilganligi, olingan amaliy natijalarning vakolatli davlat tashkilotlari tizimlari tomonidan tasdiqlanganligi va tavsiyalar amaliyotga joriy etilganligi ishonchliligini isbotlaydi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Qoraqalpog'iston Respublikasi to'qay va cho'l o'simliklar entomofaunasi fitofag turlari to'liq tahlil qilinganligi, mintaq faunasi uchun yangi turlarni ro'yxatga olinganligi, zararkunandalar miqdorining ekologik omillar ta'sirida o'zgarish dinamikasining xususiyatlari ochib berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Janubiy Orolbo'yi cho'l va toqay hududida zararkunanda hasharotlarning tur tarkibi aniqlanganligi, ma'lumotlar bazasi ishlab chiqilganligi va ularni nazorat qilish uchun chora-tadbirlar taklif etilganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. "Janubiy Orolbo'yi cho'llashuvining Qoraqalpog'iston tuproq usti va osti hasharotlari faunasiga ta'siri va zamonaviy holati" mavzusi bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

dissertatsiya natijalari asosida Qoraqalpog'iston Respublikasining to'qay va cho'l ekotizimida *Populus* ning 54 tur, *Salix* ning 35, *Elaeagnus* ning 42, *Haloxylon* ning 407, *Tamarix* ning 181, *Ammodendron* ning 25, *Atraphaxis* ning 4 tur zararkunandasi aniqlanib, Qoraqalpog'iston Respublikasi O'rmon xo'jaligi qo'mitasiga joriy qilingan (Qoraqalpog'iston Respublikasi O'rmon xo'jaligi qo'mitasining 2025-yil 13-yanvardagi № 1-27-sonli ma'lumotnomasi). Natijada to'qay va cho'l hududlardagi manzarali daraxtlarga zarar keltiruvchi fitofaglar ro'yxati qo'mita va uning hududdagi bo'limlarining ma'lumotlar bazasiga kiritilib, zararli hasharotlar turini aniqlashda, ularning bioekologik xususiyatlariga oid ma'lumotlardan foydalangan holda o'rmon o'simliklarni saqlab qolish hamda manzarali o'simliklar zararkunandalari atlasini va tavsiyanomasini chop qilish imkonini bergan;

Tadqiqotlar davomida Qoraqalpog'iston Respublikasi to'qay va cho'l ekotizimida *Alhagi* ning 55, *Halimodendron* ning 26, *Artemisia* ning 112, *Ferula* ning 29, *Calligonum* ning 58, *Salsola orientalis* ning 74, *Salsola arbuscula* ning 33, *Astragal* ning 16 turdan iborat zararkunanda hasharotlar ro'yxati shakllantirilib, Qoraqalpog'iston Respublikasi Ekologiya, Atrof muhitni himoya qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi amaliyotiga joriy etilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi

Ekologiya, Atrof muhitni himoya qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 2025-yil 17-yanvar № 01/18-2-233-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, to'qay va cho'l ekotizimidagi manzarali, yem-xashak, dorivor va qum ko'chishini oldini oluvchi o'simlik qoplamasini zararkunanda hasharotlardan himoya qilish, asrash va zararakunandalarga qarshi kurashda atrof-muhit uchun zararsiz entomofag hasharotlardan foydalanish hamda to'qay va cho'l o'simliklari entomofaunasi atlasini tayyorlash imkonini bergan.

Tadqiqotlar davomida dorivor o'simliklardan *Glycyrrhiza glabra* ning 20, *Ephedra* ning 5, *Peganum harmala* ning 10, *Halothamnus subaphylla* ning 6, *Salsola* ning 32 turi aniqlangan va keltiradigan zarari, zararlilik darajasi, tarqalish miqdorlari va bioekologik xususiyatlari o'rganilib, Qoraqalpog'iston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligi amaliyotiga joriy etilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligining 2025-yil 13-yanvar № 03/017-116-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, qishloq xo'jaligi ekinlari, shu jumladan, dorivor va yem-xashak o'simliklar zararkunandalarining ro'yxati ma'lumotlar bazasiga kiritish va ularni doimiy nazoratga olish, asosiy o'simlik xo'jayinlarini aniqlash, dala monitoringini olib borish, zararkunanda fitofaglarga qarshi kurashda entomofag hasharotlardan foydalanish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 9 ta xalqaro va 8 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 33 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari natijalari chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 15 ta maqola, jumladan, 13 tasi respublika va 2 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, beshta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 189 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Adabiyotlar tahlili”** deb nomlangan birinchi bobida Qoraqalpog'iston hududida entomofaunani o'rganish bo'yicha xorijiy davlatlar va mamlakatimiz olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlar to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Qoraqalpog'iston tabiiy sharoitlari, tajribalar o'tkazilgan joyi va qo'llanilgan uslublari”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot olib borilgan hududning tabiiy-geografik holati va iqlim sharoitlari, tadqiqot materiallari va uslublari to'g'risida ma'lumotlar bayon qilingan. Haroratning yillar kesimida

ko‘tarilishi, cho‘llanishning ortishi hasharotlar tur tarkibiga ta’siri ob-havo iqlim sharoiti asos sifatida ko‘rsatilgan.

Janubiy Orolbo‘yi tabiiy ekotizimlar entomofaunasi zararkunandalarining tur tarkibi, mavsumiy dinamikasini o‘rganish ishlari 2006-2024-yillar davomida Ustyurtda, Qizilqum cho‘li o‘simlik plantatsiyalarida, Amudaryo deltasi, Boday to‘qay qo‘riqxonasining o‘simliklardan iborat to‘qaylarida materiallar yig‘ilgan va kuzatish ishlari amalga oshirilgan. Olib borilgan tadqiqotlar jarayonida, hasharotlarining tur tarkibini aniqlash va bioekologik xususiyatlarini o‘rganish maqsadida tizimli ravishda materiallar yig‘ilgan va tahlil qilingan. Namunalarni yig‘ish va faunistik tahlil qilish, shuningdek, zararkunanda hasharotlarni bioekologik xususiyatlarini o‘rganish I.V.Kojanchikov (1961), V.F.Paliy (1970), K.K.Fasulati (1971), M.S.Gilyarov (1975), Y.B.Bizova (1987) va B.A.Sulaymanov (2017) usullari asosida amalga oshirilgan (1-rasm).




Turlarning tizimli tahlili va ularning lotincha nomlari G.Y.Bey-Bienko (1970) asarining hasharotlarini aniqlash bo‘yicha qo‘llanmasidan va hasharotlarning zamonaviy tur tarkibi, trofik aloqasi va tasnifini aniqlash Global bioxilma-xillik ma’lumotlari bazasidan (GBIF) foydalanildi. Turlar miqdori va paydo bo‘lishi R.Dajoz (2000) formulasi asosida hisoblab chiqildi. Statistik tahlillar G.F.Lakin uslubiga asoslangan holda amalga oshirildi.

$$F (\%) = 100 \times (P_i / P)$$

Dissertatsiyaning **“Janubiy Orolbo‘yi tabiiy ekotizimlar entomofaunasining taksonomik va faunistik tahlili”** deb nomlangan uchinchi bobi ikki bo‘limdan iborat bo‘lib, unda to‘qay va cho‘l ekotizimi fitofag zararkunandalarining tur tarkibi, faunistik tahlili to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan. Bobning “To‘qay ekotizimi zararkunanda hasharotlarining taksonomik tavsifi va faunistik tahlili” deb nomlangan birinchi bo‘limida shirinmiya (*Glycyrrhiza glabra*), to‘rang‘il (*Populus*), tol (*Salix*), jiyda (*Elaeagnus*), yantoq (*Alhagi*), ching‘il (*Halimodendron*) o‘simlik zararkunandalarining 6 turkum, 51 oila, 133 avlodga mansub 185 turi aniqlanib, ular to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan. Shimoli-g‘arbiy O‘zbekiston hududining to‘qay


ekotizimida tadqiqot olib borgan olimlarning ma'lumotlari tadqiqot natijalari bilan qiyosiy tahlil qilinib, Shirinmiyada uchrovchi 9 tur, To'rang'ilda uchrovchi 4 tur, Tolda uchrovchi 5 tur, Jiyyada uchrovchi 2 tur, Yantoqda uchrovchi 19 tur va Ching'ilda uchrovchi 8 ta tur jami 47 ta tur yangilangan ro'yxat sifatida kiritildi (2-rasm).



2-rasm. To'qay o'simliklarida qayd qilingan yangi fitofag turlar soni

Shu bobning "Cho'l ekotizimi zararkunanda hasharotlarining taksonomik tavsifi va faunistik tahlili" deb nomlangan ikkinchi bo'limida Qoraqalpog'iston Respublikasi cho'l ekotizimida saksovlarning (*Haloxylon*) 407 tur, yulg'unning (*Tamarix*) 181 tur, shuvoqning (*Artemisia*) 112 tur, kovrakning (*Ferula*) 29 tur, qandimning (*Calligonum*) 58 tur, keyreukning (*Salsola orientalis*) 74 tur, boyalishning (*Salsola arbuscula*) 33 tur, cherkezning (*Salsola*) 32 tur, qum akatsiyasining (*Ammodendron*) 25 tur, singrenning (*Astragal*) 16 tur, isiriqning (*Peganum harmala*) 10 tur, jingalakning (*Atraphaxis*) 4 tur, efedraning (*Ephedra*) 5 tur va chogonning (*Halothamnus subaphylla*) 6 tur zararkunanda hasharot turlari ro'yxati shakllantirildi va faunistik tahlil qilindi.

Janubiy Orolbo'yi hududi cho'l o'simliklari umumiy zararkunandalari entomofaunasining faunistik tahlili o'rganilganda 7 turkum, 76 oila, 415 avlodga mansub 823 tur hasharotlar aniqlandi. Janubiy Orolbo'yi hududi cho'l o'simliklari umumiy zararkunandalari entomofaunasining faunistik tahlili o'rganilganda 7 turkum, 76 oila, 415 avlodga mansub 823 tur hasharotlar aniqlandi (3-rasm).



3-rasm. Cho'l fitofaglarining taksonomik tarkibi

Tadqiqotlar asosida olingan natijalar adabiyot ma'lumotlari bilan taqqoslanganda cho'l ekotizimida o'rganilgan saksovul (*Haloxylon*) uchun – 272 tur, yulg'un (*Tamarix*) – 122 tur, shuvoq (*Artemisia*) – 95 tur, kovrak (*Ferula*) – 12 tur, qandim (*Calligonum*) – 35 tur, keyreuk (*Salsola orientalis*) – 52 tur, boyalish (*Salsola arbuscula*) – 21 tur, cherkez (*Salsola*) – 14 tur, qum akatsiya (*Ammodendron*) – 16 tur, singren (*Astragal*) – 11 tur, isiriq (*Peganum harmala*) – 4 tur, jingalak (*Atraphaxis*) – 4 tur, efedra (*Ephedra*) – 3 tur va chogon (*Halothamnus subaphylla*) – 4 tur, ya'ni 665 ($47,5 \pm 19,81$) ta fitofag turi Janubiy Orolbo'yi cho'l ekotizimi faunasi uchun ilk bor qayd etildi (1-jadval).

1-jadval

Cho'l fitofaglarining tadqiqot va boshqa manbalar bilan qiyosiy tahlili

№	To'qay o'simligi	Adabiyotlarda aniqlangan fitofaglar soni	Tadqiqotlarimizda aniqlan yangi fitofaglar soni
1	Saksovul (<i>Haloxylon</i>)	135,6 $\pm$ 0,16	271,5 $\pm$ 0,17
2	Yulg'un (<i>Tamarix</i>)	58,3 $\pm$ 0,26	121,5 $\pm$ 0,16
3	Shuvoq (<i>Artemisia</i>)	16,5 $\pm$ 0,22	94,4 $\pm$ 0,22
4	Juzg'un (<i>Calligonum</i>)	22,7 $\pm$ 0,26	34,6 $\pm$ 0,16
5	Cherkez (<i>Salsola richteri</i>)	17,5 $\pm$ 0,22	13,7 $\pm$ 0,15
6	Quyonsuyak (<i>Ammodendron</i>)	8,7 $\pm$ 0,15	15,6 $\pm$ 0,22
7	Keyreuk (<i>Salsola orientalis</i>)	21,5 $\pm$ 0,16	51,6 $\pm$ 0,16
8	Boyalish (<i>Salsola arbuscula</i> .)	10,7 $\pm$ 1,08	20,7 $\pm$ 0,15
9	Singren (<i>Astragal</i>)	4,5 $\pm$ 0,22	10,6 $\pm$ 0,16
10	Efedra (<i>Ephedra</i>)	1,7 $\pm$ 0,15	2,6 $\pm$ 0,16
11	Kavrak (<i>Ferula</i>)	16,6 $\pm$ 0,22	11,5 $\pm$ 0,22
12	Isiriq (<i>Peganum harmala</i>)	5,6 $\pm$ 0,16	3,7 $\pm$ 0,15
13	Chogon (<i>H.subaphylla</i>)	1,7 $\pm$ 0,15	3,8 $\pm$ 0,13
14	Jingalak (<i>Atraphaxis</i>)	-	3,6 $\pm$ 0,22
Jami		23,42$\pm$9,52	47,5$\pm$19,81

Izoh: n=10, M $\pm$ m: nazoratda zararkunandalar uchramagan o'simliklarga nisbatan solishtirmalilik darajasi P<0,001.

Dissertatsiyaning “To'qay va cho'l ekotizimi zararkunanda hasharotlarning ekologik xususiyatlari, trofik aloqasi” deb nomlangan to'rtinchi bobi 3 bo'limdan iborat. Bu bobda to'qay va cho'l ekotizimida uchrovchi zararkunanda hasharotlarning bioekologik xususiyatlari, fitofaglarning o'simliklarda uchrash ehtimolligi va trofik

aloqasi bilan bog'liq o'simliklar a'zolariga keltiradigan zarari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.


Bobning "To'qay va cho'l ekotizimi zararkunanda hasharotlarning bioekologik xususiyatlari" deb nomlangan birinchi bo'limida to'qay va cho'l o'simliklarining dominant turlari hisoblangan *Bruchophagus mutabilis* Nikolskaya 1952, Donxo'r *Bruchidius glycyrrhizae* Fahraeus 1839, Tixius uzunburuni *Tychius rufirostris* Gyllenhal 1936, *Drosicha turkestanica* Archangelskaya 1931, *Adelphocoris lineolatus* Goeze 1778, *Carpocoris coreanus iranensis* Tamanini 1958, *Haltica deserticola* Weise 1889, *Dicranura vinula* va boshqa zararkunanda fitofaglarining biologiyasi va ekologik xususiyatlari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Turlarni aniqlash uchun 1000 dan ortiq namunalar *Dicranura vinula* L. (*Cerura vinula* L.) lichinka va katta garpiya g'umbaklari to'plandi (4-rasm).



4-rasm. *Dicranura vinula* lichinkasi va g'umbagi (Original).

Bobning "To'qay o'simliklar zararkunandalarining trofik xususiyatlari" deb nomlangan ikkinchi bo'limida saksovul (*Haloxylon*), yulg'un (*Tamarix*), shuvoq (*Artemisia*), kovrak (*Ferula*), qandim (*Calligonum*), keyreuk (*Salsola orientalis*), boyalish (*Salsola arbuscula*), cherkez (*Salsola*), qum akatsiya (*Ammodendron*), singren (*Astragal*), isiriq (*Peganum harmala*), jingalak (*Atraphaxis*), efedra (*Ephedra*) va chogon (*Halothamnus subaphylla*) o'simliklarining trofik aloqalari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan va bu bo'lim 6 ta kichik bo'limlarga ajratilgan.

Shirinmiya (*Glycyrrhiza glabra* L.) o'simliklarida aniqlangan 20 turdagi zararkunandalarning faqat 2 turi (10%) bargga zarar yetkazishi aniqlangan bo'lsa, 2 turi (10%) urug'larga, 7 turi (35%) gulga, 9 turi aralash (45%) a'zolarga (barg, urug', gul, ildiz, poya, novda) zarar yetkazishi qayd etildi (5-rasm).



5-rasm. Qoraqalpog'iston sharoitida shirinmiya zararkunandalari trofik munosabati

Bundan tashqari, hasharotlarning o'simliklar bilan trofik aloqasini o'rganishda ular ommaviy turlar, uchinchi darajali; ikkilamchi darajadagi turlar va tasodifiy turlarga ega ekanligi ma'lum bo'ldi. Ikkita hasharot turi (*Epicauta erythrocephala*, *Mylabris fabricii*) tasodifiy turlar sifatida tasniflangan. Oltita hasharot turi (*Bruchidius glycyrrhizae*, *Cetonia aurata*, *Oxythyrea cinctella*, *Drosicha turkestanica*, *Adelphocoris lineolatus*, *Bruchophagus mutabilis*) ikkilamchi tur toifasiga, uchinchi darajadagi tur-toifasiga esa to'rtta tur (*Bruchidius tuberculicauda*, *Tychius rufirostris*, *Adelphocoris seticornis*, *Dolycoris penicilatus*) kirishi aniqlandi, qolgan 8 ta hasharot turi dominant tur sifatida qayd qilindi (2-jadval).

2-jadval


Qoraqalpog'iston sharoitida shirinmiya (*Glycyrrhiza glabra*) fitofaglarining trofik munosabati

№	Turlar nomi	O'simlikda uchrashi	Zararlaydigan o'simlik a'zosi
Qattiqqanotlilar yoki qo'ng'izlar (Coleoptera Linnaeus, 1758) turkumi			
Chrysomelidae Latreille, 1802 oilasi			
1.	<i>Haltica deserticola</i>	++++	barg
2.	<i>Bruchidius glycyrrhizae</i>	++	urug'
3.	<i>Bruchidius tuberculicauda</i>	+++	urug', gul
<i>Curculionidae</i> Latreille, 1802 oilasi			
4.	<i>Megamecus viridans</i>	++++	barg, novda
5.	<i>Tychius rufirostris</i>	+++	urug', gul
<i>Elateridae</i> Leach, 1815 oilasi			

6.	<i>Agriotes meticulosus</i>	++++	ildiz, poya
Meloidae Gyllenhal, 1810 oilasi			
7.	<i>Epicauta erythrocephala</i>	+	barg
8.	<i>Mylabris fabricii</i>	+	gul
Scarabaeidae Latreille, 1802 oilasi			
9.	<i>Cetonia aurata</i>	++	gul
10.	<i>Oxythyrea cinctella</i>	++	gul
11.	<i>Potosia lugubris</i>	++++	gul
Yarim qattiq qanotlilar (Hemiptera Linnaeus, 1758) turkumi			
Aphididae Latreille, 1802 oilasi			
12.	<i>Aphis craccivora</i>	++++	gul
Margarodidae Newstead, 1901 oilasi			
13.	<i>Drosicha turkestanica</i>	++	ildiz, poya
Miridae Hahn, 1833 oilasi			
14.	<i>Adelphocoris lineolatus</i>	++	gul
15.	<i>Adelphocoris seticornis</i>	+++	gul
Pentatomidae Leach, 1815 oilasi			
16.	<i>Cellobius abdominalis</i>	++++	urug', gul
17.	<i>Carpocoris fuscispinus</i>	++++	urug', gul
18.	<i>C.coreanus iranus</i>	++++	barg, gul
19.	<i>Dolycoris penicilatus</i>	+++	urug', gul
Parda qanotlilar (Hymenoptera Linnaeus, 1758) turkumi			
Eurytomidae Walker, 1832 oilasi			
20.	<i>Bruchophagus mutabilis</i>	++	urug'


Eslatma: (++++) - ommaviy; (+++) - uchinchi darajali; (++) – ikkinchii darajali; (+) - tasodifiy turlar.

To‘rang‘il (*Populus*) daraxtlarida zararkunanda hasharotlarning trofik oziqlanishi o‘rganilganda zararkunandalarning 26 turi bargga, 10 turi daraxt po‘stiga, 1 ta turi lub tolasiga, 4 turi ildizga, 3 ta turi novdaga, 1 turi urug‘larga, qolgan 9 turi *Populus* ning aralash a‘zolarida yashab oziqlanishi qayd etildi (6-rasm).



6-rasm. Qoraqalpog‘iston sharoitida to‘rang‘il (*Populus*) zararkunandalari trofik munosabati

Salix o'simliklarida aniqlangan 35 turdagi zararkunandalarning 22 turi (63%) novda (poya) ga zarar yetkazishi aniqlangan bo'lsa, 13 turi (37%) esa barglarga zarar yetkazishi qayd etildi (7-rasm).



7-rasm. Qoraqalpog'iston sharoitida Tol (*Salix*) zararkunandalari trofik munosabati

Shuningdek, *Elaeagnus* o'simliklarida aniqlangan 42 turdagi zararkunandalarning 24 turi (57,2%) novda (poya)ga zarar yetkazishi aniqlangan bo'lsa, 14 turi (33,3%) esa barglarga, 4 ta (9,5%) turi esa ildizga zarar yetkazishi (8-rasm) aniqlandi.



8-rasm. Qoraqalpog'iston sharoitida Jiyda (*Elaeagnus*) zararkunandalari trofik munosabati

Ching'il *Halimodendron* o'simliklarida aniqlangan 26 turdagi zararkunandalar asosan barg, gull va novdalarga zarar keltirishi o'rganildi, bunda 15 tur zararkunanda (57,7%) barglarga, 7 ta turi (27,0%) gulga va 4 turi esa (15,3%) novdaga zarar yetkazishi qayd etildi (3-jadval).


Qoraqalpog‘iston sharoitida ching‘il (*Halimodendron*) zararkunandalari trofik munosabati

№	Turlar nomi	O‘simlikda uchrashi	Zararlaydigan o‘simlik a‘zosi
Qattiqqanotlilar yoki qo‘ng‘izlar (Coleoptera Linnaeus, 1758) turkumi			
Buprestidae Leach, 1815 oilasi			
1.	<i>Acmaeodera sp.</i>	++++	novda
2.	<i>Anthaxia iliensis</i>	++++	novda
Cerambycidae Latreille, 1802 oilasi			
3.	<i>Chlorophorus faldermanni</i>	+	barg
Chrysomelidae Latreille, 1802 oilasi			
4.	<i>Bruchidius halodendri</i>	+++	gul
5.	<i>Chrysochares asiaticus</i>	+	barg
6.	<i>Cryptocephalus melanoxanthus</i>	++	barg
7.	<i>Clytra quadripunctata appendicina</i>	++	barg
8.	<i>Diorhabda elongata</i>	+	barg
9.	<i>Haltica deserticola</i>	++	barg
Curculionidae Latreille, 1802 oilasi			
10.	<i>Chloeobius contractus</i>	+	barg
11.	<i>Megamecus viridans</i>	+++	barg
12.	<i>Platymycterus trapezicollis</i>	+	barg
Meloidae Gyllenhal, 1810 oilasi			
13.	<i>Mylabris crocata</i>	+	gul
14.	<i>Mylabris frolovi</i>	+	gul
15.	<i>Mylabris khodjantica</i>	+	gul
16.	<i>Mylabris monozona</i>	+	gul
17.	<i>Mylabris scabiosae</i>	+	gul
18.	<i>Mylabris staudingeri</i>	+	gul
Yarim qattiq qanotlilar (Hemiptera Linnaeus, 1758) turkumi			
Alydidae Amyot and Serville, 1843 oilasi			
19.	<i>Megalotomus ornaticeps</i>	++++	novda
Aphididae Latreille, 1802 oilasi			
20.	<i>Aphis (Aphis) althaeae afghanica</i>	+	barg
Cicadidae Latreille, 1802 oilasi			
21.	<i>Melampsalta musiva</i>	++	barg
Diaspididae Maskell, 1878 oilasi			
22.	<i>Diaspidiotus leguminosum</i>	++++	novda
Tangaqanotlilar yoki kapalaklar (Lepidoptera Linnaeus, 1758) turkumi			
Erebidae Leach, 1815 oilasi			
23.	<i>Syntomis phegea</i>	++	barg
Psychidae Boisduval, 1828 oilasi			
24.	<i>Ptilocephala plumifera</i>	+	Barg

Pyralidae Latreille, 1809 oilasi			
25.	<i>Pyralis farinalis</i>	++	barg
Zygaenidae Latreille, 1809 oilasi			
26.	<i>Zygaena truchmena</i>	++	barg
Jami			

Eslatma: (+) tasodifiy turlar; (++) ikkinchii darajali turlar; (+++) uchinchi darajali turlar; (++++) ommaviy turlar.

Alhagi o'simliklarida aniqlangan 55 turdagi zararkunandalar asosan barg va gullarga zarar keltirishi aniqlandi, bunda 38 tur zararkunanda (69,1%) barglarga, 17 ta turi esa (30,9%) gulga zarar yetkazishi tajribalarda qayd qilindi (9-rasm).




9-rasm. Qoraqalpog'iston sharoitida yantoq (*Alhagi*) zararkunandalari trofik munosabati

Bundan tashqari, hasharotlarning o'simliklar bilan trofik aloqasini o'rganishda ular ommaviy turlar, tasodifiy turlar, ikkinchii darajali turlar va uchinchi darajali turlarga ega ekanligi ma'lum bo'ldi. 12 tur hasharot tasodifiy turlar, 13 tur ikkinchi darajali turlar va 23 tur uchinchi darajali va 7 tur ommaviy turlar sifatida tasniflangan.


Bobning "Cho'l o'simliklar zararkunandalarining trofik xususiyatlari" deb nomlangan uchinchi bo'limi va kichik bo'limlarida 14 tur cho'l o'simliklarda yashovchi va zarar keltiruvchi fitofaglarining trofik aloqalari to'g'risida tadqiqot ma'lumotlari keltirilgan.

Saksovul (*Haloxylon*) o'simliklarida aniqlangan 407 turdagi zararkunandalar o'simlikning turli a'zolariga zarar keltirishi aniqlandi, bunda 10 tur zararkunanda (2,5%) novdalarda, 50 ta turi ildizda (12,3%), 12 ta turi shoxalarda (2,9%), 70 ta turi kurtakda (17,2%), 108 ta turi bargda (26,5%) va qolgan 157 (38,6%) turi aralash holda o'simlik a'zolarida oziqlanib zarar yetkazishi qayd etildi (10-rasm).



10-rasm. Qoraqalpog'iston sharoitida Saksovul (*Haloxylon*) zararkunandalari trofik munosabati


Yulg'un (*Tamarix*) o'simliklarida aniqlangan 181 turdagi zararkunandalar o'simlikning turli a'zolariga zarar keltirishi aniqlandi, bunda 36 tur zararkunanda (19,8%) novdalarda, 11 ta turi ildizda (6,1%), 6 ta turi shoxalarda (3,3%), 1 ta turi poyada (0,6%), 50 ta turi bargda (27,6%), 4 tur zararkunanda (2,2%) kurtaklarda, 3 tur zararkunanda (1,7%) mevalarda, 4 tur zararkunanda (2,2%) gullarda va qolgan 66 (36,5%) turi aralash holda o'zimgilik a'zolarida oziqlanib zarar yetkazishi qayd etildi (11-rasm).



11-rasm. Qoraqalpog'iston sharoitida Yulg'un (*Tamarix*) zararkunandalari trofik munosabati


Juzg'un (*Calligonum*) o'simliklarida aniqlangan 58 turdagi zararkunandalar o'simlikning turli a'zolariga zarar keltirishi qayd etildi, bunda 1 ta turi ildizda (1,7%), 11 ta turi shoxalarda (19,0%), 1 ta turi poyada (1,7%), 12 ta turi bargda (20,7%), 13 tur zararkunanda (22,4%) kurtaklarda, 11 tur zararkunanda (19,0%) gullarda va

qolgan 9 (15,5%) turi aralash holda o‘zimlik a‘zolarida oziqlanib zarar yetkazishi qayd etildi (12-rasm).




12-rasm. Qoraqalpog‘iston sharoitida juzg‘un (*Calligonum*) zararkunandalari trofik munosabati

Cherkez (*Salsola richteri*) o‘simliklarida aniqlangan 32 turdagi zararkunandalar o‘simlikning turli a‘zolariga zarar keltirishi aniqlandi, bunda 2 ta turi ildizda (6,2%), 1 ta turi shoxalarda (3,1%), 7 ta turi bargda (22,0%), 17 tur zararkunanda (53,1%) kurtaklarda, 2 tur zararkunanda (6,2%) mevalarda, 3 tur zararkunanda (9,4%) gullarda oziqlanib zarar yetkazishi qayd etildi (13-rasm).




13-rasm. Qoraqalpog‘iston sharoitida cherkez (*Salsola richteri*) zararkunandalari trofik munosabati

Boyalish (*Salsola arbuscula*) o‘simliklarida aniqlangan 33 turdagi zararkunandalar o‘simlikning turli a‘zolariga uchrab zarar keltirishi aniqlandi, bunda 2 ta turi ildizda (6,0%), 22 ta turi bargda (66,6%), 4 tur zararkunanda (12,2%) kurtaklarda, 1 tur zararkunanda (3,0%) gullarda va qolgan 4 (12,2%) turi aralash holda o‘zimlik a‘zolarida oziqlanib zarar yetkazishi qayd etildi (14-rasm).



14-rasm. Qoraqalpog‘iston sharoitida boyalish (*Salsola arbuscula*) zararkunandalari trofik munosabati

Keyreuk (*Salsola orientalis*) o‘simliklarida aniqlangan 74 turdagi zararkunandalar o‘simlikning turli a‘zolariga zarar keltirishi aniqlandi, bunda 9 ta turi ildizda (12,2%), 10 ta turi shoxalarda (13,5%), 38 ta turi bargda (51,4%), 10 tur zararkunanda (13,5%) kurtaklarda, 3 tur zararkunanda (4,0%) gullarda va qolgan 4 turi (5,4%) aralash holda o‘simlik a‘zolarida oziqlanib zarar yetkazishi qayd etildi (15-rasmga qarang).



15-rasm. Qoraqalpog‘iston sharoitida Keyreuk (*Salsola orientalis*) zararkunandalari trofik munosabati

Efedra (*Ephedra*) o‘simliklarida aniqlangan 5 turdagi zararkunandalar o‘simlikning turli a‘zolariga zarar keltirishi aniqlandi, bunda 1 ta turi bargda (20,0%), 2 tur zararkunanda (40,0%) kurtaklarda, 1 tur zararkunanda (20,0%) gullarda, 1 turi (20,0%) aralash a‘zolarida oziqlanib zarar yetkazishi qayd etildi (4-jadval).

Qoraqalpog‘iston sharoitida Efedra (*Ephedra*) zararkunandalari trofik munosabati

№	Turlar nomi	O‘simlikda uchrashi	Zararlaydigan o‘simlik a‘zosi
DIPTERA LINNAEUS, 1758 TURKUMI			
Cecidomyiidae Newman, 1835			
1.	<i>Ephedromyia debilopalpis</i> Marikovskii, 1953	+	kurtak
HEMIPTERA LINNAEUS, 1758 TURKUMI			
Aphididae Latreille, 1802			
2.	<i>Ephedraphis ephedrae</i> Nevsky	++++	Poya, kurtak
Cicadellidae Latreille, 1825			
3.	<i>Batracomorphus irroratus</i> Lewis, 1834	+	barg
Lygaeidae Schilling, 1829			
4.	<i>Nysius graminicola</i> (Kolenati, 1845)	++	kurtak
Pentatomidae Leach, 1815			
5.	<i>Brachynema germarii</i> (Kolenati, 1846)	+++	gul

Eslatma: (+) tasodifiy turlar; (++) ikkinchi darajali turlar; (+++) uchinchi darajali turlar; (++++) ommaviy turlar;

Isiriq (*Peganum harmala* L.) o‘simliklarida aniqlangan 10 turdagi zararkunandalar o‘simlikning turli a‘zolariga zarar keltirishi aniqlandi, bunda 3 ta turi bargda (30,0%), 1 tur zararkunanda (10,0%) gullarda va qolgan 6 (60,0%) turi aralash holda o‘zimlik a‘zolarida oziqlanib zarar yetkazishi qayd etildi (5-jadval).

Qoraqalpog‘iston sharoitida Isiriq (*Peganum harmala* L.) zararkunandalari trofik munosabati

№	Turlar nomi	O‘simlikda uchrashi	Zararlaydigan o‘simlik a‘zosi
COLEOPTERA LINNAEUS, 1758 TURKUMI			
Buprestidae Leach, 1815			
1.	<i>Julodis variolaris</i> (Pallas, 1771)	++	barg, gul, kurtak,ildiz

Chrysomelidae Latreille, 1802			
2.	<i>Clytra quadripunctata</i> (Linnaeus, 1758)	++	barg, gul, kurtak,ildiz
Meloidae Gyllenhal, 1810			
3.	<i>Mylabris festiva</i> (Pallas, 1773)	+++	gul
HEMIPTERA LINNAEUS, 1758 TURKUMI			
Aphalaridae Low, 1879			
4.	<i>Agonosцена pegani</i> Loginova, 1960	+++	barg, gul, kurtak
Aphididae Latreille, 1802			
5.	<i>Brachyunguis harmalae</i> Das, 1918	++++	barg, gul, kurtak
6.	<i>Xerophilaphis calligoni</i> Nevsky, 1928	++++	barg
7.	<i>Xerophilaphis plotnikovi</i> Nevsky, 1928	++++	barg
Pentatomidae Leach, 1815			
8.	<i>Brachynema germarii</i> (Kolenati, 1846)	++++	barg, gul, kurtak
LEPIDOPTERA LINNAEUS, 1758 TURKUMI			
Tortricidae Latreille, 1803			
9.	<i>Laspeyresia leucogrammana</i> Hubner, 1825	++	barg, gul, kurtak
ORTHOPTERA LATREILLE, 1793 TURKUMI			
Acrididae MacLeay, 1819			
10.	<i>Calliptamus barbarus cephalotes</i> Co, 1836	+	barg

Eslatma: (+) tasodifiy turlar; (++) ikkinchi darajali turlar; (+++) uchinchi darajali turlar; (++++) ommaviy turlar.

Chogon (*Halothamnus subaphylla*) o'simliklarida aniqlangan 6 turdagi zararkunandalar o'simlikning turli a'zolariga zarar keltirishi aniqlandi, bunda 1 ta turi bargda (16,7%) va qolgan 5 (83,3%) turi aralash holda o'zimlik a'zolarida oziqlanib zarar yetkazishi qayd etildi (6-jadval).

6-jadval

**Qoraqalpog'iston sharoitida Chogon (*Halothamnus subaphylla*)
zararkunandalari trofik munosabati**

№	Turlar nomi	O'simlikda uchrashi	Zararlaydigan o'simlik a'zosi
COLEOPTERA LINNAEUS, 1758 TURKUMI			
Chrysomelidae Latreille, 1802			
1.	<i>Ischyronota elevata</i> (Reitter, 1890)	++	barg
Curculionidae Latreille, 1802			
